



1. Абдирашева А. Замоновий турк тилидаги иктисодий терминларнинг лингвокогнитив таҳлили – филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2019. Б. 41
2. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV. – Ташкент, 1991.
3. Сабирова Эзоза ШУХРАТ ҚИЗИ “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши Тошкент – 2021 **107-108 б 180.]**
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдлик. Москва. Рус тили, 1981.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдлик. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
6. O‘zbek tili izohli lug‘ati. 6 jildlik. Toshkent. G‘afur G‘ulom, 2022.

“BOBURNOMA” ASARIDAGI MURAKKABLASHGAN GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI

Abdazova Gulsanam Inomjon qizi
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy voqealarni hujjatlashtiradi, balki muallifning ichki kechinmalari, shaxsiy psixologik holatlari va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan murakkab sintaktik tuzilmalar vositasida tasvirlaydi. Bobur o‘z asarida arabcha va forsha grammatik matnlardan, sintaktik parallelizm, bog‘langan va ergashgan gaplar kabi konstruksiyalardan keng foydalangan bo‘lib, ushbu uslubiy xususiyatlar uning o‘ziga xos nutq madaniyatini namoyon etadi. Ushbu tezisda asarda qo‘llangan murakkab qurilmalar, muallif uslubining grammatik xususiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, sintaksis, sintaktik tahlil, Grammatik qurilma, murakkab qurilmalar, murakkablashgan sodda gap, murakkablashgan qo‘shma gap.

СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «БАБУР-НАМЕ»

Аннотация. Произведение Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» представляет собой не только ценный исторический источник, фиксирующий события своего времени, но и выдающийся образец авторской речи, насыщенной сложными синтаксическими структурами. Посредством данных конструкций автор раскрывает внутренние переживания, психологические состояния и эстетические воззрения. В тексте широко используются элементы арабской и персидской грамматической традиции, синтаксический параллелизм, а также сложносочинённые и сложноподчинённые предложения, что свидетельствует о высоком уровне речевой культуры Бабура. В настоящем исследовании проводится анализ синтаксической организации сложных предложений в «Бабур-наме» и выявляются грамматические особенности авторского стиля.

Ключевые слова: «Бабур-наме», синтаксис, синтаксический анализ, грамматическая конструкция, сложные структуры, осложнённое простое предложение, осложнённое сложное предложение.

SYNTACTIC ANALYSIS OF COMPLEX SENTENCES IN THE WORK BABURNAMA

Annotation: Zahiriddin Muhammad Babur’s *Baburnama* serves not only as a valuable historical record documenting the events of its time but also as an outstanding example of the author’s linguistic artistry, characterized by the use of complex syntactic structures. Through these constructions, Babur reveals his inner emotions, psychological states, and aesthetic perceptions. The text demonstrates extensive use of Arabic and Persian grammatical traditions, syntactic parallelism, and both compound and complex sentences, all of which reflect the author’s refined speech culture. This study analyzes the syntactic organization of complex sentences in the *Baburnama* and identifies the grammatical features that define Babur’s unique stylistic manner.

Keywords: Baburnama, syntax, syntactic analysis, grammatical structure, complex constructions, complicated simple sentence, complicated compound sentence.



Kirish. Adabiy til taraqqiyoti jarayonida har bir yozma yodgorlik o‘z zamonasi uchun nafaqat madaniy va tarixiy manba, balki lingvistik hodisalar majmui sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ham ushbu yondashuv nuqtai nazaridan chuqur tahlilni taqozo etadi. Asarda Boburning ichki kechinmalari, shaxsiy qarashlari va hayotiy tajribalari til vositalari, ayniqsa sintaktik konstruksiyalar orqali badiiy obraz darajasida ifodalanadi. Ayniqsa, murakkab gaplar, sintaktik parallelizm, arabcha va forscha grammatik konstruksiyalar poetik nutqning ajralmas komponentlari sifatida ko‘zga tashlanadi. Shu sababli, “Boburnoma”dagi sintaktik qurilishlar badiiylilik va psixologik yondashuvning mazmuniy asosini tashkil etadi.

Professor G‘.Abdurahmonov tomonidan ilmiy adabiyotlarga olib kirilgan murakkablashgan sodda gaplar atamasi ostida sodda gaplar bilan qo‘shmagaplar oralig‘idagi gaplar ekanligita’kidlandi. Tilshunos olim murakkab gap atamasini qo‘shmagapga nisbatan, murakkablashgan gap terminini esa sodda gapga nisbatan qo‘llagan. Olim sodda gaplarni murakkablashtiruvchi birliklar sirasiga ajratilgan bo‘lakli gaplar, undalma va kirishlarni kiritadi. A.G‘ulomov va M.Asqarovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” darsligida ham murakkablashtiruvchilarga uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kirish qurilmalar, undalmalarni kiritadilar. Hamda bunday murakkablashtirish uni sodda gaplar doirasidan chiqarib yubormasligini, shakliy va mazmuniy jihatdan murakkablashuviga sabab bo‘lishini ta’kidlaydilar. Sodda gaplarda murakkablashuv sintagmatik yoki intonatsion bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra murakkablashishi mumkin ekanligi H.Boltaboyeva tomonidan qayd etilgan. Zahiriddin Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida ruhiy holatlarini, ayniqsa, yo‘qotish, g‘am, sog‘inch yoki ishonchsizlik kayfiyatini ifoda etishda murakkab sintaktik qurilmalardan ustalik bilan foydalangan. Bunday sintaktik vositalar orasida ergash gapli, bog‘lovchisiz bog‘langan va ketma-ket bog‘langan gaplar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular matnda psixologik uzilishlar, ichki ziddiyatlar yoki fikr oqimining murakkabligi kabi holatlarni berishda xizmat qiladi.

Nechukki, mazkur bo‘ldi, xotirg‘a yettikim, ora muncha yovuq bo‘lg‘onda xon, chun ota og‘adurlar, borib mulozamat qilsam, o‘tkan kuduratlar raf‘ bo‘lg‘ay, iroqta-yovuqta eshitur, ko‘rarga yaxshi bo‘lg‘ay deb kelib, Shohruxiyadan tashqari Haydarbek solg‘on bog‘da xong‘a mulozamat qildim. (32 a)

Ushbu jumla Bobur uslubiga xos bo‘lgan murakkab ergash gapli qo‘shma gap namunasi hisoblanadi. Sintaktik jihatdan: kesimlar ko‘pincha fe‘lning ehtimol mayli (-g‘ay) yoki shart mayli (-sa/-nda) shakllarida qo‘llangan, bu esa matnga modallik va ehtimollik ohangini beradi; bog‘lovchilar: “*nechukki*”, “*kim*”, “*chun*”, “*deb*” gaplarni semantik jihatdan izohlashga xizmat qilgan; asosiy voqea – Boburning xonga borib, mulozamat qilgani; qolgan gaplar esa bu voqeani izohlaydi, ijtimoiy va hissiy asosini ochadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida o‘zbek tilining ona tiliga xos sintaktik tizimini saqlagan holda, arab va fors tillaridan olingan sintaktik konstruksiyalarni keng qo‘llagan. Bu konstruksiyalar asar matniga nafaqat madaniy rang-baranglik baxsh etgan, balki Boburning til shijoati va ifoda vositalarini boyitgan.

Arabcha va forscha sintaktik elementlar asosan murakkab jumlar tarkibida, jumladan, ko‘plikda bog‘langan gaplar, kelishik ergash gaplar, va infinitivli gaplar ko‘rinishida uchraydi. Ushbu elementlar yordamida Bobur murakkab ruhiy holatlarni va falsafiy mulohazalarni yanada chuqurroq ifodalash imkoniga ega bo‘lgan.

Sulton Ali mirzo bilan ko‘rushgondin so‘ng chun qish yovuq kelib edi, Samarqand elining ham xeyli tanqislig‘i yo‘q edi. (38-b)

Gapning grammatik asosi “*tanqislig‘i yo‘q edi*” kesimidir. Ergash gaplar zamon va sabab asosiy gapdagi holatni Samarqand xalqining tanqislik ko‘rmagani sabab va vaqt nuqtai nazaridan izohlaydi. Bog‘lovchilar: “*-gondin so‘ng*” → vaqt bog‘lovchi shakl, “*chun*” → sabab bog‘lovchi. Gapning umumiy ma‘nosi: Sulton Ali mirzo bilan uchrashuvdan keyin, qish sovuq kelgan bo‘lsa-da, Samarqand xalqi hech qanday qiyinchilik ko‘rmadi.

Bu jihattinkim, Shayx Abdullo barlos Boysunqur mirzo qoshidin Sulton Mas‘ud mirzo qoshig‘akim bordi, chun mirzoga qoyinota edi, asru ulug‘ rioyat topti. (“B” 65-bet)

Gap murakkab ergash gapli qo‘shma gap bo‘lib, tarkibida uchta ergash gap qatnashadi: 1.Sababiy izohlovchi ergash gap: “*Bu jihattinkim...*”

2. Aniqlovchi ergash gap: “*...qoshidin ... qoshig‘akim bordi*”

3. Sabab ergash gap: “*chun mirzoga qoyinota edi*”. Asosiy mazmuniy markaz esa “*asru ulug‘ rioyat topti*” jumlasida mujassam.



Xulosa tarzida aytish mumkinki, Zahiriddin Bobur asarlari tili o‘z davridagi boshqa asarlarga nisbatan ancha sodda bo‘lsa-da, forsiy qurilmalar ham qo‘llanganini ko‘ramiz. Buni yozma adabiyotda forsiy til an‘analari hukmron bo‘lganligi bilan izohlash mumkin. Asarda murakkab gaplarning o‘ziga xos ishlatilishi shaxsiy kechinmalarni ifodalashda ularning badiiy va psixologik ahamiyati aniqlandi. “Boburnoma”da arabcha va forsha sintaktik konstruksiyalarning mavjudligi tilning madaniy va tarixiy kontekstini boyitgan, shuningdek, ifoda vositalarini yanada kengaytirgan.

Bog‘langan va ergashgan gaplar Zahiriddin Boburning ruhiy holatlari va ichki ziddiyatlarini jonli va ta’sirchan tarzda yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Sintaktik vositalar yordamida asarda psixologik chuqurlik, emotsional turfa-tumanlik va tilning poetik ekspressivligini yuzaga keltirgan.

Shunday qilib, “Boburnoma” sintaksisi nafaqat o‘z davrining adabiy tili namunasi, balki o‘ziga xos ruhiy-motivatsion konstruksiyalar to‘plami sifatida ham ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Ushbu tadqiqot Zahiriddin Boburning til va uslubiga yangicha yondashuvni taqdim etib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent: Sharq. 2002. – B. 378
2. Абдурахмонов, Ғ., Шукуров, Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Тошкент: Ўқитувчи. 1973. – Б. 311
3. Rahmatov M., O‘zbek tili sintaksisi rivojida chun bog‘lovchisining o‘rni. - Toshkent // Golden Scripts, 2020. – B. 21
4. Abdurahmonov.G‘ “O‘zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir o‘zbek tili va adabiyoti masalalari”. Toshkent–1962
5. Boltaboyeva X.“O‘zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar”. Toshkent–1969
6. Fayzullayev B., Abdullayev T.“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent–2007
7. Нурмонов, А., Махмудов, Н., Ахмедов, А., Солихўжаева, С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент: Фан. 1992.
- 8.Гаджиева, Н.З. Основные пути развития синтаксической структуры тюркских языков. Москва: Наука. 1973.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. Ikkinchi nashr. Toshkent: 2016.
10. Щербак, А.М. Грамматика староузбекского языка. Москва, Ленинград: АН СССР. 1962.
11. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. TA’LIM VA TARAQQIYOT, 4(4), 380-388.
12. R.A.Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGINING IJTIMOIIY MUHITGA TA’SIRI. ZAMONAVIIY FAN: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA YOSH TADQIQOTCHILARNING DOLZARB IZLANISHLARI, 1(1), 16-19.

ЎСИМЛИК МОЙЛАРИНИ ОҚЛАШ УЧУН УГЛЕРОДЛИ АДСОРБЕНТ ОЛИШДА КИМЁВИЙ ФАОЛЛАШТИРИШНИ АДСОРБЦИОН ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ

Шеркузиева Шахло Иброхимальи кизи

НамДТУ таянч докторанти

Назирова Рахнамохон Мухторовна

ФарДТУ. “Озиқ-овқат технологияси ва хавфсизлиги” кафедраси, т.ф.д.

Аннотация: Углеродли адсорбентлар турли хил органик чиқиндилар- қобик, ёғоч кивиғи, мева данаклари ва активация йўли билан олинади. Ўсимлик мойларининг сифати уларнинг таркибида учрайдиган еркин ёғ кислоталари, пигментлар, оксидланиш маҳсулотлари ва бошқа аралашмалар микдорига бевосита боғлиқ. Мазкур тадқиқотда ўсимлик мойларини адсорбцион тозалаш усулида кимёвий фаоллаштиришни адсорбцион хоссаларига таъсири кўриб чиқилди. Адсорбент сифатида олхўри ва ўрик данигидан углеродли адсорбент олиш мақсадида уларни термик пиролиз қилинди. Кимёвий фаоллаштиришда турли хил кимёвий реагент ёрдамида амалга оширилади. Бунда асосан калий гидроксид, натрий гидроксид, калий ва натрий карбонатдан кенг фойдаланилади. Кимёвий реагент билан углерод таъсирлашиши натижасида кристалитлар